

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси  
Давлат тест маркази

## АХБОРОТНОМА

2020

№ 2

Тошкент

## «АХБОРОТНОМА»

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар  
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест  
маркази  
илмий-услубий журнали.  
Бир йилда 4 марта чиқади.  
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот  
агентлигида 2007 йил 19 апрелда  
қайта рўйхатдан ўтказилган.  
Гувоҳнома № 0247

Таъсисчи:  
Давлат тест маркази

Таҳририят ҳайъати:  
Баратов Акмал  
(бош муҳаррир)  
Гулямов Суръат  
Муҳаммадиев Муродулла  
Каримов Маджит  
Содиқов Қосимжон  
Ибрагимов Абдуғофур  
Бобоев Орзикул  
(бош муҳаррир ўринбосари)  
Қаюмов Абдухалил  
Мирвалиев Зоид  
(масъул котиб)

Босишга рухсат этилди: 23.06.2020  
Шартли босма табағи: 6,1  
Нашриёт ҳисоб табағи: 5,9  
Адади 100. Буюртма № 2-А-20

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар  
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест  
маркази босмаҳонасида чоп этилди.

Нашрга тайёрловчилар:  
А. Баратов, З. Мирвалиев

Компьютерда саҳифаловчи:  
О. Бобоев

Таҳририят манзили:

100084, Тошкент шаҳри,  
Боғишамол кўчаси, 12- уй.

© «Ахборотнома»

## МУНДАРИЖА

Кириш.....	3
<b>З.З.Мирвалиев.</b> Тестология асосчилари тарихи ва унинг ривожланиши .....	4
<b>Sh.S.Abdiraimov.</b> Ona tilidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning o'ziga xosligi .....	21
<b>Алимов М.А., Саипов А.С., Таджибаев П.А.</b> О качестве результатов тестирования при отборе абитуриентов в вузы Узбекистана .....	27
<b>Н.Э.Юсупова.</b> Тестнинг сифат мезонлари .....	36
<b>J.Iskandarov.</b> 2019 yilda Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarning tumanlar kesimidagi soni to'g'risida MA'LUMOT.....	42
<b>J.Iskandarov, N.Nurmuhamedova.</b> Oliy ta'lim muassasalari kesimida abituriyentlarning to'g'ri topilgan topshiriqlar ulushi bo'yicha taqsimlanishi (davomi) .....	54

## КИРИШ

“Ахборотнома” илмий-услубий журналининг ушбу сонида Давлат тест маркази ходимлари томонидан олиб борилган илмий ва услубий тадқиқотлари натижалари ҳақида бир неча мақолалар берилган.

Мақолалардан бири тестология ва педагогик ўлчовлар бўйича инглиз, француз, рус ва америкалик олимларнинг илмий йўналишларида яратилган назария ҳамда улар асосидаги қонуниятлари баён қилинган. Шу билан бирга олимларининг олиб борган илмий изланишлари, амалий тадқиқи ва Ўзбекистондаги миллий тест тизими, бу борада олиб борилаётган ишлар, тадқиқотлар келтирилган.

Мазкур сондан она тили фанидан тест топшириқларини экспертиза қилишнинг ўзига хослиги, она тилидан тест топшириқларини экспертиза қилиш тавлабларини ишлаб чиқиш, тест топшириқларини сифатли экспертиза қилиш орқали назарий жиҳатдан тест валидлигини ва ишончилигини оширишга эришиш, талабгорларнинг билим сифатини ҳаққоний баҳолаш кабилар келтирилган.

Шунингдек, журналда Ўзбекистон олий таълим муассасаларига қабул тест синовлари натижалари сифатини ошириш масаласи муҳокама қилинган, уларни яхшилаш усуллари таклиф этилган.

Тест тузишда аҳамиятли ҳисобланган тест сифати мезонлари санаб ўтилган ва уларга асосан немис тили фанидан немис мутахассислари томонидан ўрганилиб илмий жиҳатдан берилган таърифлар баъзи мисоллар билан тушунтириб берилган.

2019 йилда Республика олий таълим муассасаларига талабаликка тавсия этилган абитуриентларнинг туманлар кесимидаги сони тўғрисидаги маълумотлар ҳам берилган.

Журналнинг ушбу сони таълим соҳасида фаолият олиб бораётган барча мутахассислар, педагоглар, шунингдек, абитуриентлар, ота-оналар ҳамда кенг жамоатчилик учун мўлжалланган.

27. Закирова М.Ш. Тест топшириқлари сифатининг статистик таҳлили. Услубий қўлланма Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Тошкент ш., 2019 й., 57 б.

28. Мирвалиев З.З. Педагогик ўлчовларда тест топшириқ турлари. Услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Тошкент ш., 2018 й., 39 б.

29. Мирвалиев З.З., Баратов А.А., Эрмаматов М.Дж. Педагогик ўлчов воситаларини ишлаб чиқиш услубияти. Услубий кўрсатма. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Тошкент ш., 2019 й., 26 б.

30. Mirvaliev Z.Z., Mirvalieva M.Z. Historu of the development language pedagogu testing. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, “Ахборотнома” илмий-услубий журнали, Тошкент ш., 2019 й., №3., 20-22 бет.

31. Zuparxo‘jayeva S.Z., Ziyoviddinov N.K., Yusupov J.R. Aprobatsion test natijalari tahlili. Davlat test markazi Axborotnoma ilmiy-uslubiy jurnali, Toshkent, 2019 y., №2, 20-48 bet.

32. Баратов А.А., Эрмаматов М.Дж., Мирвалиев З.З., Сулаймонов А.А., Алимов Д.М., Олимбекова З.А. Интеллектуал қобилиятни аниқлаш тест топшириқларини классик ҳамда замонавий тест назарияси асосида баҳолаш. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, “Ахборотнома” илмий-услубий журнали, Тошкент ш., 2020 й., №1., 10-21 бет.

## History of founders of psychometrics and its development

*Z.Z.Mirvaliyev*

**Abstract:** the article discusses the history of French and English foundations for assessment and pedagogical measurements, theories and laws developed by American scholars. Furthermore, it encompasses the researches done by Russian scholars, their applications, national testing system in Uzbekistan and scientific-methodological research done in this field.

## ONA TILIDAN TEST TOPSHIRIQLARINI EKSPERTIZA QILISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

©2020 y. Abdiraimov Sh.S.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, 100214,  
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12-yü.*

[www.samshab@mail.ru](mailto:www.samshab@mail.ru)

**Qisqacha mazmuni:** maqolada ona tili fanidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning o‘ziga xosligi, ona tilidan test topshiriqlarini ekspertiza qilish talablarini ishlab chiqish, test

*topshiriqlarini sifatli ekspertiza qilish orqali nazariy jihatdan test validligini va ishonchliligini oshirishga erishish, talabgorlarning bilim sifatini haqqoniy baholash kabilar keltirilgan.*

**Kalit soʻzlar.** *Testologiya, ona tiliga oid testlar, testni ekspertiza qilish, testni tahrirlash, nutqiy kompetensiyalar, lingvistik kompetensiyalar*

Ta'lim – millatning ham, davlatning ham yagona najot yoʻli. Har bir taraqqiyotning negizida sifatli ta'lim yotadi. Sifatli ta'limga erishish uzoq vaqtni talab etadigan marakkab jarayon hisoblanadi. Unga erishish uchun bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ta'lim jarayonlarini toʻgʻri amalga oshirish lozim, ya'ni Davlat ta'lim standartlari va oʻquv dasturlarini belgilangan maqsadga muvofiq ishlab chiqish, sifatli ta'lim berish va ta'lim natijasini maqsadga muvofiq tarzda toʻgʻri baholash. Bu jarayonlar bir-birini aks ettirib, toʻldirib boruvchi ajralmas zanjirlar kabidir. Agarda birortasida zaiflik kuzatilsa, maqsadga erishilmaydi. Bular ichida ta'lim sifatini baholash eng muhim jarayondir. Chunki “baholash – oʻqitish va ta'lim oʻrtasidagi koʻprikdir” [1]. Bir necha bosqichli, koʻplab omillarga bogʻliq boʻlgan ta'lim sifatini baholash jarayoni ta'lim standartida belgilangan talablarga mos tarzda amalga oshirilmasa, ta'lim berishning mazmuni va shakliga ta'sir qilib, uning sifatini yoʻqotishiga turtki boʻladi. Shuning uchun ham butun dunyo ilm-fanida, pedagogikasida ta'lim sifatini qanday baholash oʻz dolzarbligini yoʻqotmay kelayotgan masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Pedagogika taraqqiyotida ta'lim sifatini baholashning bir qancha shakllaridan foydalanilgan. Masalan, ta'lim sifati suhbat asosida, yozma ishlar asosida baholangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sifatini baholashda test topshiriqlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Buning boisi, test topshiriqlari yordamida koʻp sonli ta'lim oluvchilarni, bitiruvchilarni bir vaqtda baholash imkoni mavjud boʻladi, shu bilan birga, baholashda inson omilining aralashuvi yuqori darajada cheklanadi. Hozircha inson ta'lim sifatini baholashda testning oʻrnini bosuvchi muqobil tizimni qayta yaratmadi. Shunga qaramay hozirgi kunga qadar olimlar oʻrtasida ta'lim sifatini baholashda test topshiriqlaridan foydalanish bahsli masala boʻlib kelmoqda. Buning sababi, test topshiriqlarining sifati har doim ham maqsadga muvofiq boʻlavermasligidadir. Shu oʻrinda: “Nega test topshiriqlarining sifati havas qilarli darajada emas?” – degan tabiiy savol tugʻiladi. Buning sababini rus olimi Y.A. Mixayliyev quyidagicha izohlaydi: Zamonaviy didaktik testologiyada testlarning sifatsizligi asosan ularni shakllantirish jarayonlari bilan bogʻliqdir” [2]. Haqiqatan ham, test topshiriqlarini shakllantirish koʻp bosqichli murakkab jarayon boʻlib, testning sifati bu jarayonlarning toʻgʻri amalga oshirilishi va soha mutaxassislarining ilmiy va pedogogik saviyasiga bogʻliqdir. Test tayyor holatga kelgunga qadar bir qancha nazariy va amaliy bosqichlarni bosib oʻtadi. Bular: test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish, test topshiriqlarini tuzish va tahrirlash, ekspertiza qilish, aprotatsiyadan oʻtkazish, statistik tahlil qilish, tahlil asosida test topshiriqlarini tahrirlash va boshqalar.

“Test topshirig‘ini ishlab chiqish o‘quv fanining mazmuni test mazmunida aks ettirilishi orqali amalga oshadi” [3]. Shuning uchun ham test topshiriqlarini ekspertiza qilish alohida e‘tiborni talab qiladigan, testning talablar darajasida ekanligini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi.

Test topshiriqlari sifatini har tomonlama tekshirish, baholash rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda to‘rtta asosiy bosqichga ajratiladi [4]:

- dastlabki ekspertiza;
- ichki ekspertiza;
- testologik ekspertiza;
- yakuniy xulosa berish.

Haqiqatdan ham, bu bosqichlarda test topshiriqlarining sifati yuzasidan berilgan xulosalar uning yaroqliligini, sinovlarda foydalanish mumkinligini ta‘minlaydi. Bu esa taqrizchi ekspertdan test topshiriqlarini ekspertiza qilish jarayonida katta mas‘uliyatni talab qiladi.

Taqrizchi ekspert test topshiriqlarini ekspertiza qilish jarayonida nazariy jihatdan test topshirig‘ining validligi, ishonchliligi, muqobil javoblarning ahamiyatliligi, vaqt taqsimoti, qiyinlik darajasi, ahamiyatlilik darajasi kabi mazmuniy va shakliy talablarni hisobga olishi lozim. Shundagina test sifatli bo‘ladi.

Ona tili fanidan test topshiriqlarini ekspertiza qilish barcha umumta‘lim fanlari qatori umumiy qoidalarga bo‘ysunsa-da, unda alohida o‘ziga xoslik ham mavjud. Chunki til ko‘nikmalarini: eshitib tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish kompetensiyalarini test yordamida to‘laqonli baholab, tekshirib bo‘lmaydi. Bu esa nafaqat taqrizchi ekspertdan, balki test tuzuvchidan ham katta iqtidorni, iste‘dodni va ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham ona tili fanidan test topshiriqlarini ekspertiza qilish bir qancha talablardan iborat bo‘lishi lozim.

Biz ona tilidan tuzilgan test topshiriqlarini ekspertiza qilish talablarini ikkiga ajratishni ma‘qul deb topdik:

1. Umumiy talablar.
2. Fanga oid talablar.

Umumiy talablar – test topshirig‘ining to‘g‘ri tuzilganligi, uning validligi, ishonchliligi, qiyinlik darajasi, ahamiyatlilik darajasi, topshiriqni bajarishga sarflanadigan vaqt, testning bola psixologiyasiga ta‘siri, testlarning o‘zaro munosabati kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ona tilidan tuzilgan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning umumiy talablari:

- test topshirig‘ining spetsifikatsiyasini taqrizdan o‘tkazish;
- test topshirig‘ini to‘liq o‘qib chiqish;
- testning to‘g‘ri javob variantini aniqlash;
- test topshirig‘ining Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlariga mosligini tekshirish;
- test topshirig‘ining ahamiyatlilik darajasini aniqlash;
- test topshirig‘ini bajarishda sarflanadigan o‘rtacha vaqt qiymatini belgilash (soniyalarda);

– test savoli va javobida berilgan gaplarning mazmunini didaktik va psixologik jihatdan tekshirish;

– test topshirig‘ining qiyinlik darajasi to‘g‘ri qo‘yilganligini tekshirish;

– test topshirig‘ining manbalarini tekshirish;

– test topshirig‘idagi muqobil javoblarning ahamiyatliligini tekshirish;

– test javoblari hajmining bir xilligini tekshirish;

– test topshirig‘ida imloviy, punktuatsiyaviy xatoliklar va uslubiy g‘alizliklar uchramasligini tekshirish;

– test topshiriqlarining o‘zaro munosabatlarini aniqlash.

Fanga oid talablar – fanning o‘ziga xosligidan kelib chiqib belgilangan talablar hisoblanadi.

– test topshirig‘i fanga oid qaysi kompetensiyani baholashga qaratilganligini aniqlash;

– grammatik qonuniyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy test topshiriqlari tilni diaxronik va sinxron jihatdan ikki xil tahlil qilinadigan o‘rinlarga oid emasligini tekshirish;

– leksik birliklarning ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lgan test topshiriqlarida nutqiy kontekslarning hisobga olinganligini baholash;

– test topshiriqlarini to‘g‘ri tushunishga ta‘sir etuvchi omillar uchramasligini tekshirish;

– test topshiriqlarida qo‘llangan har qanday belgilarning, harflarning, so‘zlarning adabiy me‘yorlarga muvofiqligini tekshirish;

– test topshiriqlari variantida til ko‘nikmalari: o‘qib tushunish, eshitib tushunish, yozish, gapirish va grammatik-leksik me‘yorlarning yetarli darajada qamrab olinganligini baholash.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, test topshiriqlari sifatini o‘rganayotganda test topshirig‘ining har bir tarkibiy qismini nafaqat alohida, balki boshqa test topshiriqlari bilan munosabatlar tizimida ham baholash kerak. Shundagina test topshiriqlari sifatiga berilgan baho obyektiv bo‘ladi. Bu esa ta‘lim samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi talablar asosida ona tili fanidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning maxsus tizimini ishlab chiqdik.

Ona tilidan test topshiriqlarining ekspertiza xulosasini yozish uchun quyidagi jadvalni taklif qilamiz:

T/r	Bob	Bo'lim	Qiyinlik darajasi	Test topshirig'i kaliti	Test topshirig'ining manbasi	Ahamiyatlilik darajasi	Sarflanadigan vaqt (soniyada)	Standart va dasturlarga mosligi	Test topshiriqlarining o'zaro munosabati	Muqobil javoblarning ahamiyatliliigi	Test topshirig'ning psixologik taqrizi	Qaysi kompetensiyani baholash	Taqrizchi-ekspert xulosasi	Muallif izohi
1														
Umumiy xulosa:														

Expert (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_ imzosi \_\_\_\_\_ sana: \_\_\_\_\_

Muallif (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_ imzosi \_\_\_\_\_ sana: \_\_\_\_\_

Ushbu jadvalda har bir test topshirig'i yuzasidan ekspertning xulosasi aks etadi. Diqqat qilgan bo'lsangiz, ushbu jadval o'n beshta punktdan iborat. Ularning har birida test topshirig'i bilan bog'liq muayyan xulosalar ifodalanadi.

1-ustunda test topshirig'ining tartib raqami yoziladi, 2, 3-ustunlarda test topshiriqlari spetsifikatsiyasidagi bob va bo'lim raqamlari yoziladi.

4-ustunda test topshirig'ining qiyinlik darajasi yoziladi. Odatda, testologiyada test topshiriqlarining qiyinlik darajasi 0/1/2/3 darajalarga ajratiladi. Bunda 0-daraja eng oson test topshiriqlari bo'lsa, 3-daraja eng qiyin test topshiriqlari hisoblanadi.

5-ustunda test topshirig'ining kaliti belgilanadi, 6-ustunda manbasi keltiriladi.

7-ustunda test topshirig'ining ahamiyatlilik darajasi ifodalanadi. Bunda test tuzilgan mavzular ahamiyatliliigi hisobga olinadi. Odatda ahamiyatlilik darajasi uchga ajratiladi: 0 - ahamiyatsiz; 1 - ahamiyatli; 2 - juda muhim.



8-ustunda test topshirig'ini bajarishda sarflanadigan o'rtacha vaqt miqdori yoziladi.

9-ustunda testning validligi belgilanadi. Ya'ni test topshirig'ining mazmuni amaldagi standart va o'quv dasturlarida belgilangan malaka talablariga mos yoki mos emasligi tekshiriladi va quyidagicha ifodalanadi: *0 – mos emas; 1 – mos.*

10-ustunda test topshiriqlarining o'zaro aloqadorligi keltiriladi. Ya'ni bunda umumiy variantdagi test topshiriqlari bir-birini to'ldirib borishi, o'zaro bog'liqligi baholanadi. U quyidagicha ifodalanadi: *0 - bog'liq emas, 1 - qisman bog'liq; 2 - bog'liq; 3 - chambarchas bog'liq.*

11-ustunda muqobil javoblarning ahamiyatliligi baholanadi, ya'ni distraktorlar o'z funksiyasini bajara olishi tekshiriladi. Odatda, bu o'rinda passiv, ahamiyati past bo'lgan muqobil javoblar ko'rsatiladi.

12-ustunda test topshirig'ining mazmuni talabgorning yoshiga xos psixologik va funksional xususiyatlar inobatga olinganligi baholanadi. Ya'ni test psixologik ekspertizadan o'tkaziladi. Bunda *0 – talab darajasida emasligini, 1 esa talab darajasida ekanligini* ifodalaydi.

13-ustunda test topshirig'i tilga oid qaysi kompetensiyani baholashga mo'ljallanganligi tekshiriladi. Odatda test topshirig'i varianti nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni to'laqonli baholay olishi lozim. Ammo buning imkoni yo'q. Chunki tilga oid ba'zi ko'nikmalarni test yordamida baholab bo'lmaydi. Shunday bo'lishiga qaramay tilga oid kompetensiyalarni shartli tarzda 0 – 4 raqamlarida belgilab olamiz: *0 – lingvistik kompetensiya (tilga oid qonun-qoidalarga asoslangan nazariy topshiriqlar); 1 – tinglab tushunish kompetensiyasi; 2 – o'qib tushunish kompetensiyasi; 3 – gapirish kompetensiyasi; 4 – yozish kompetensiyasi.* Shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, bir test topshirig'i bilan bir necha ko'nikmalar ham baholanishi mumkin.

14-ustunda taqrizchi-ekspertning har bir test topshirig'i yuzasidan xulosasi, tahrirlashlari va tavsiyalari aks etadi.

15-ustunda ekspertiza xulosalariga test muallifining izohi keltiriladi.

Taqrizchi test topshiriqlari ekspertizasini to'liq tugatgach, test topshiriqlari varianti yuzasidan umumiy xulosalarini keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili fanidan tuzilgan test topshiriqlari yuqoridagi talablar asosida ekspertizadan o'tkazilsa, ularning validligi va ishonchliligi nazariy jihatdan ta'minlanadi. "Test topshirig'ida validlik va ishonchlilik qanchalik yuqori bo'lsa, talabgorlarning bilim darajasini o'lchash aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi" [5]. Bu esa talabgorlar o'rtasida teng raqobatni ta'minlaydi.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, ona tiliga oid ko'nikma va malakalarni test yordamida yetarli darajada baholash imkoni mavjud emas, shuning uchun ham ona tilidan ta'lim sifatini baholash uchun suhbat, yozma ish va test topshiriqlaridan iborat bo'lgan maxsus imtihon tizimini joriy etish ona tili ta'limi samaradorligini oshiradi.

### ADABIYOTLAR

1. Dylan Viliam. Assessment: The Bridge between Teaching and Learning. // National Council of Teachers of English. Volume 21 Number 2, December 2013. Page 15-20.
2. Михайлычев Е. А. Дидактическая тестология. – М.: Народное образование, 2001. – 432 с.
3. Zakirova M.Sh., Ermatova N.N. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Toshkent, 2018. – 41 b.
4. Пермяков О.Е., Максимова О.А. Формализация экспертного оценивания качества тестовых материалов с позиций системного подхода // Вестник педагогических инноваций. № 3 (7). Новосибирск, 2006. – 178 с.
5. Пермяков О. Е, Максимова О. А. Процедуры комплексной экспертизы качества тестовых заданий и тестов при формировании банка данных. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. <http://www.jurnal.org/articles>

### THE SPECIFICITY OF THE EXAMINATION OF TEST ITEMS IN THE NATIVE LANGUAGE

**Abdiraimov Sh.S.**

**Abstract:** *the article describes the specificity of the examination of test items in the native language, the development of requirements for the examination of test items in the native language, the achievement of theoretical validity and reliability of the test through quality examination of test items, fair assessment of the quality of knowledge candidates.*

### О КАЧЕСТВЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ТЕСТИРОВАНИЯ ПРИ ОТБОРЕ АБИТУРИЕНТОВ В ВУЗЫ УЗБЕКИСТАНА

© 2020 г. Алимов М.А., Саипов А.С., \*Таджибаев П.А.

*e-mail:* [learnlink@rambler.ru](mailto:learnlink@rambler.ru)

*Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности. г.Ташкент, ул. Шохжахон, 5.*

### Анатоция

В работе обсуждаются пути повышения качества результатов тестирования при отборе в высшие образовательные учреждения Узбекистана, предлагаются возможные способы их улучшения. Это простой способ определения соответствия трудности тестов уровню знаний тестируемого контингента. При вычислении баллов вводится коррекция на возможность угадывания, которая позволит однозначно исключить, случайно полученные